

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND
PRIVATE ENTREPRENEURSHIP**

Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrası o'qituvchisi.

Email:traxmonqulov@inbox.ru

Nurillayeva Shahzoda Shukurullo qizi

Fan va texnologiyalar universiteti.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

303-guruh talabasi

Email: nurillaevashagzoda@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari, mavjud imkoniyatlar hamda istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilinadi. Kichik biznes iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini ish bilan ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududiy rivojlanishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Maqolada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati, infratuzilmaviy va moliyaviy mexanizmlar, shunindek, innovatsion yondashuvlar orqali uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy, ma'muriy, imtiyoz, xususiy, ishsizlik, daromad.

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим малый бизнес и частное предпринимательство актуальные вопросы развития, имеющиеся возможности и перспективы направления анализируются. Малый бизнес-одна из важнейших отраслей экономики трудоустройство населения, эффективное использование местных ресурсов и большое значение в обеспечении территориального развития. Малый бизнес в статье государственная политика поддержки, инфраструктура и финансы механизмы, а также его дальнейшее развитие за счет инновационных подходов рассматриваются варианты.

Ключевые слова: юридический, административный, привилегия, частный, безработица, доход.

Abstract. *This article covers small business and private entrepreneurship current development issues, available opportunities and prospects directions are analyzed. Small business is one of the most important sectors of the economy is the employment of the population, the effective use of local resources and it is of great importance in ensuring regional development. The article describes small businesses as public policy on support, infrastructural and financial mechanisms, as it were, further develop it through innovative approaches options are considered.*

Key words: *legal, administrative, privilege, specific, unemployment, income.*

Kirish (Введение / Introduction)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning muhim bo'g'ini sifatida alohida o'rin egallaydi. Ular nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishda, balki innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy resurslardan foydalanish va hududiy tenglikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, soliq va kredit imtiyozlari, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bu sohaning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati, duch kelinayotgan muammolar hamda istiqbolli yo'nalishlar chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitida bu sohaning barqarorligini ta'minlash va uning salohiyatidan to'liq foydalanish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. XXI asrda globalshuv jarayonlari, raqobatining keskinlashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida har bir mamlakat o'z iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun samarali iqtisodiy siyosat yuritmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday davlat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatiga ega bo'lgan sohalardan biri sanaladi. Mazkur soha yangi ish o'rinlari yaratish, aholini daromad bilan ta'minlash, ichki bozorni mahsulot va xizmatlar bilan to'ldirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda katta o'rin egallaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekiston iqtisodiyotida bu yo'nalish muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Prezident tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar, yangi qonun hujjatlari, tadbirkorlar uchun yaratilayotgan yangiliklar va qulay shart-sharoitlar

ushbu sohaning salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, soliq yukining kamaytirilishi, litsenziyalash va ruxsat berish tartibotlarining soddalashtirilishi, kreditlash tizimining takomillashtirilishi hamda elektron hukumat xizmatlarining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlari uchun muhim turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, sohada hali ham yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud: moliyaviy resurslarga kirishdagi qiyinchiliklar, kadrlar malakasining yetarli emasligi, ichki bozordagi raqobat muhitining to‘liq shakllanmaganligi va eksport salohiyatining cheklanganligi shular jumlasidandir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni kichik biznes subyektlari faoliyatiga keng joriy etish zarurati ham ortib bormoqda. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati va mavjud muammolar, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamlar, shuningdek, bu sohaga doir istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi-kichik biznesni yanada samarali rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. Sharh: Ushbu strategiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi. Imtiyozlar, kreditlash, raqamlashtirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Soliev N., G‘ulomov S. «Tadbirkorlik asoslari». Sharh: O‘quv qo‘llanmada tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy mohiyati, shakllari, yuritish mexanizmlari va moliyaviy asoslari tahlil qilinadi. Kichik biznesning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni aniq misollar bilan yoritilgan. Qurbonov A.X. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish» Sharh: Muallif kichik biznesni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillar, ularni bartaraf etish yo‘llari va rivojlanish istiqbollari chuqur tahlil qiladi. Ilmiy va statistik ma‘lumotlarga asoslangan holda prognozlar beradi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlari. World Bank (2023), «Doing Business» hisobotlari. Sharh: O‘zbekistonning kichik biznes bo‘yicha xalqaro reytingdagi o‘rni, huquqiy muhit va kredit resurslariga kirish imkoniyati tahlil qilinadi. Ushbu hisobotlar xalqaro tajribani o‘rganish va milliy strategiyalarni takomillashtirish uchun muhimdir. Mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha nashr etilgan maqolalar («Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» jurnali, «Tadbirkor» gazetasi). Sharh: Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kichik biznes muammolari, soliq yengilliklari, raqamli xizmatlar, ayollar tadbirkorligi kabi dolzarb mavzularni qamrab oladi.

Tahlil va natijalar va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasi. Respublika ijtimoiy iqtisodiy-rivojlanishi bozor munosabatlariga asoslangan bo'lib mulkchilik munosabatlarida shakllanmoqda. Ijtimoiy ishlab chiqarishda nodavlat sektorining ulushi ortib unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez sur'atlarda o'sib borishi kuzatilmoqda. Respublika Prezidenti tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Tadbirkorlik – ijtimoiy iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik to'g'risida»gi qonunida (1992y). tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: «Tadbirkorlik mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdi». Tadbirkorlikning mohiyati shundan iboratki birinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992y.) va O'zbekiston Respublikasida «Tadbirkorlik to'g'risidagi» qonunga muvofiq balog'at yoshiga yetgan har bir fuqaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'z ixtiyori bilan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin. Ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lmasdan, balki erkin tanlaydigan faoliyatdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hozirgi holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son hamda «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son qaroriga muvofiq:»Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturi (keyingi o'rinlarda - Dastur) amalga oshirilishi;

-tashabbuskorlar qisqa va o'rta muddatli amaliy o'quv kurslarda biznes ko'nikmalariga o'qitilishi;

-amaliy o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat olgan tashabbuskorlar Dastur doirasida moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlanishi;

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB Dasturni samarali amalga oshirish va doimiy ravisha takomillashtirib borish bo'yicha asosiy tayanch bank etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi «Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturi tashabbuskorlarini tanlash, ularning loyihalarini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish to'g'risidagi nizom l-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillardagi holatlari.

1. 2025-yilda kichik va xususiy biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda - 34 foizga, eksportda - 34 foizga va aholi bandligini ta'minlashda 75 – foizga yetkazish;

kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish orqali ularni «champion» tadbirkorlarga aylantirish;

ichimlik va oqova suv, yo'l, qurilish, kommunal xo'jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish;

100 nafardan ko'p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish;

Sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o'rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish;

uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo'jaligini tashkil qilish.

Rivojlantirish istiqbollari so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi muntazam oshish tendensiyasiga ega bo'ldi va oxirgi 5 yilda past darajada tushmoqda. 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining YalM dagi ulushi 31.0% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilga kelib bu ko'rsatkich 38.2% ga, 2010-yilda 60.8%ga, 2015-yilda 64.6% ga, 2020-yilda 54.8% ga va 2023-yilda esa 51.2% ga yetgan. Yillar davomida olib qaraydigan bo'lsak oshish tendensiyasi kuzatilyapti, ammo 2016-yildan keyin past darajada bo'lsa ham pasayish tendensiyasi kuzatildi. So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YalM dagi ulushini kamayishining asosiy sababi YalM hajmining oshishligi bilan bog'liq. Masalan, 2019-yilda YalM hajmi 532 712,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 1 066 569,0 mlrd so'mga yetdi, bu o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini pasayishiga to'g'ri keladi. Bundan shuni aniqlasak bo'ladiki, 2019-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati

298 319 mlrd. so‘m (56%), 2023-yilda esa 555 682.4 mlrd. so‘mni (51.2%) tashkil qilgan’. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘shish sur‘atlariga bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, investitsiyalarning kirib kelishi, tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar, oilaviy tadbirkorlikka e‘tiborning kuchayishi va boshqa ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik biznes iqtisodiyotning tayanchi. Bunga quyidagilarni misol qilib olishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Ular ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy xomashyoni qayta ishlaydi va ichki bozorda talabni qondiradi. Ishsizlikni kamaytirishdagi roli. Kichik tadbirkorlik, ayniqsa xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarda ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta‘minlashda ulkan salohiyatga ega. Soliq bazasining kengayishi. Ko‘plab kichik korxonalar qonuniy faoliyat yuritgan taqdirda davlat byudjetiga soliq tushumlari ortadi. Bu esa infratuzilma va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish imkonini beradi. Innovatsion g‘oyalarning manbai. Ko‘p hollarda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar aynan kichik biznes subyektlarida vujudga keladi, chunki ular bozorga tez moslashadi va yangilikka ochiq bo‘ladi. Moliyaviy resurslarga kirish cheklangan. Afsuski, bugungi kunda kichik biznes vakillarining moliyaviy manbalarga (kreditlar, investitsiyalar) kirish imkoniyati hali ham cheklangan. Raqobatbardoshlik muammosi. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik korxonalar ko‘pincha yirik korxonalar bilan raqobatlasha olmaydi. Huquqiy va ma‘muriy to‘siqlar. Ruxsatnomalar, litsenziyalar olishdagi byurokratik tartiblar hamon kichik tadbirkorlikning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- moliyaviy ko‘makni kengaytirish.
- mikrokredit va grant dasturlarini ko‘paytirish.
- kredit stavkalarini subsidiyalash.
- investitsiya jamg‘armalari orqali xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash. Soliq siyosatini soddalashtirish.
- yangi ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish (masalan, dastlabki 3 yil uchun soliq ta‘tili).
- «Yagona soliq» tizimini soddalashtirish va raqamlashtirish. Yuridik yordam va konsalting xizmatlarini kengaytirish.

- Har bir tumanda bepul huquqiy maslahat markazlarini tashkil qilish. Tadbirkorlar uchun onlayn platformalar orqali maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish. Bozor va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

- Mahalliy mahsulotlarni xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok ettirish.

- Tashqi bozorlarga chiqish uchun sertifikatlash va standartlashtirish markazlarini yaratish.

- Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini joriy qilish.

- Tadbirkorlik asoslari bo'yicha o'quv kurslarini maktab va kollej darajasida kiritish.

- Amaliy seminarlar, biznes-inkubatorlar va mentorlik dasturlarini rivojlantirish.

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.

- Onlayn biznes yuritish uchun platformalar (e-commerce, e-banking, CRM tizimlar)ni subsidiyalash.

- «Raqamli tadbirkor» dasturini yaratish.

- Ayollar va yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash.

- Ayollar va yoshlar uchun maxsus imtiyozli kreditlar.

- Gender tenglikni qo'llab-quvvatlaydigan biznes muhitini shakllantirish.

- Ma'muriy yukni kamaytirish.

- «Yagona darcha» tamoyilini to'liq joriy etish.

- Ruxsatnoma va litsenziyalar sonini kamaytirish, ularni raqamlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/References)

1. "Tadbirkorlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1992.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.- <https://lex.uz/uz/docs/-6609110>